ESHITISH QOBILIYATI ZAIF BOLALARDA NUTQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVI

Rahmonqulova Diyora Ruslanovna
Qo'qon universiteti Andijon filliali
Masofaviy ta'lim psixalogiya 25-10 talabasi
Telefon: +998 93 425 28 28
Email: karimovadiyora792@gmail.com
Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li
"Kompyuter Injiniring va raqamli texnologiyalar" kafedrasi o'qituvchisi
Qo'qon universiteti Andijon filliali
Email: xalimjonov1234@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezis eshitish qobiliyati zaif bo'lgan bolalarda nutqiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy kompleks usullari va ularning samaradorligiga bag'ishlangan. Tadqiqotda nutqiy rivojlanishning sustlashishi va eshitish idrokining qiyinlashishi kabi muammolarni bartaraf etishda koxlear implantatsiya, eshitish apparatlari, akustik stimulyatsiya, logopedik trening va interfaol multimedia texnologiyalarining o'rni tahlii qilinadi. Multidisiplinar yondashuv asosida olib borilgan reabilitatsiya chora-tadbirlari natijalari taqdim etilib, ularning samaradorligi ilmiy asoslanadi. Xulosa qilib, nutqiy tafakkurni rivojlantirishda diagnostika, texnologik yordam va pedagogik uslublarning uyg'unligi zarurligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *eshitish qobiliyati zaifligi, nutqiy tafakkur, koxlear implant, eshitish apparati, logopedik reabilitatsiya, multidisiplinar yondashuv, audiology, nutq rivojlanishi.*

Kirish

Nutqiy tafakkur insonning mantiqiy fikrlash, bilim o'zlashtirish va ijtimoiy mulokot qilish qobiliyatining asosiy poydevori hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat so'zlarni talqin qilish, balki murakkab tushunchalarni shakllantirish, xotirani ishlatish va muammolarni hal qilish kognitiv funksiyalarni ham o'z ichiga oladi. Eshitish qobiliyatining zaiflashishi bolaning atrof-muhitdagi tovush signallarini to'liq qabul qilolmasligiga olib keladi, natijada nutqning fonematik idroki, leksik-badiiy bazasi va grammatik tuzilishi sezilarli darajada susayadi. Shu bilan birga, nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklar bolaning kommunikativ imkoniyatlarini cheklab, uning psixologik, kognitiv va hataki ijtimoiy jihatdan to'liq rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Zamonaviy tibbiyot, pedagogika va audiology fanlari rivojlanishi bilan eshitish qobiliyati zaif bolalar bilan ishlashda yangi diagnostika, reabilitatsiya va ta'lim texnologiyalari joriy

etilmogda. Ushbu tezisda nutqiy tafakkurni shakllantirishda qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlar, ularning samaradorligi va amaliy qo‘llash imkoniyatlari tahlii qilinadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

Maqsad: Eshtish qobiliyati zaif bolalarda nutqiy tafakkurni rivojlantirishda qo‘llaniladigan integratsiyalashgan metodlarning samaradorligini aniqlash. Eshitish qobiliyati zaifligi bilan nutqiy tafakkur rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish. Nutqiy tafakkurni rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologik va pedagogik usullarni (koxlear implant, FM tizimlar, interfaol dasturlar) tahlil qilish. Multidisiplinar yondashuv (audiolog, logoped, psixolog, ota-ona) asosida olib borilgan ish samaradorligini baholash. Nutqiy rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Metodologiya: Tadqiqot 5-7 yoshli, turli darajadagi eshitish qobiliyati zaifligi bo‘lgan 30 nafar bolani qamrab oldi. Tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, audiologik tekshiruv, nutqiy diagnostika testlari va statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Reabilitatsiya jarayonida individual dasturlar asosida logopedik mashqlar, akustik stimulyatsiya va multimedia o‘quv vositalaridan foydalanildi.

Natijalar va tahlil:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv qo‘llanilgan bolalarda nutqni idrok etish va ifodalash qobiliyati sezilarli darajada oshdi. Koxlear implantatsiya qilingan bolalarda nutqiy tafakkur tezroq shakllandi. FM tizimlar va interfaol dasturlar bolalarning diqqatini jamlash va eshitish idrokini yaxshilashda samarali bo‘ldi. Statistik ma’lumotlar reabilitatsiya jarayonidan so‘ng bolalarning nutqiy ko‘nikmalarida o‘rtacha 40-60% ga yaqin yaxshilanish kuzatilganligini ko‘rsatdi. Muhokama va tavsiyalar: Olingan natijalar eshitish qobiliyati zaif bolalar bilan ishlashda faqat bitta usul emas, balki texnologik, pedagogik va psixologik usullarning uyg‘unligi muhimligini ko‘rsatadi.

Quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Erta diagnostika va aralashuv: Eshitish qobiliyati zaifligi iloji boricha erta aniqlandi va reabilitatsiya jarayoni darhol boshlanishi kerak. Texnologik yordamdan foydalanish: Koxlear implantlar va eshitish apparatlaridan unumli foydalanish bo‘yicha ota-onalar va pedagoglar maxsus treningdan o‘tishlari lozim. Muntazam logopedik mashqlar: Nutqiy mashqlar muntazam va tizimli ravishda individual dastur asosida amalga oshirilishi kerak. Ota-onalarni jalb etish: Reabilitatsiya jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki bolaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Eshtish qobiliyati zaif bolalarda nutqiy tafakkurni rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning samaradorligi diagnostikaning o‘z vaqtida olib borilishi, zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi va multidisiplinar mutaxassislarning hamkorligiga bog‘liq. Integratsiyalashgan yondashuv bolaning

nafaqat nutqiy, balki kognitiv va ijtimoiy jihatdan to‘liq rivojlanishiga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eshitish qobiliyati zaif bolalarda nutqiy tafakkurni rivojlantirish – bu nafaqat logopedik mashqlar yoki eshitish apparatlaridan foydalanish bilan chegaralanmaydi, balki u uzluksiz, tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Reabilitatsiya jarayonining muvaffaqiyati birinchi navbatda erta tashxis, zamonaviy texnologiyalar (koxlear implantlar, FM tizimlar, interfaol dasturlar) va mutaxassislar (audiolog, logoped, psixolog, maxsus pedagog)ning hamkorligiga bog‘liq. Shuningdek, oilaning faol ishtiroki, bolaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan individual dasturlar va doimiy psixologik qo‘llab-quvvatlash samaradorlikni oshirishning muhim omillaridir. Kelajakda eshitish qobiliyati zaif bolalar bilan ishlashda sun’iy intellekt asosidagi individual dasturlar, masofaviy logopedik xizmatlar va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, nutqiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat bolaning nutqini yaxshilaydi, balki uning jamiyatda to‘liq huquqli a’zosi bo‘lishi, o‘qish va ijodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Xalqaro manbalar:

1. Cole, E. B., & Flexer, C. (2019). Children with Hearing Loss: Developing Listening and Talking. Plural Publishing.
2. Moeller, M. P., et al. (2013). "Best Practices in Family-Centered Early Intervention for Children Who Are Deaf or Hard of Hearing." Journal of Deaf Studies and Deaf Education, 18(4), 429-445.
3. Yoshinaga-Itano, C. (2003). "From Screening to Early Identification and Intervention: Discovering Predictors to Successful Outcomes for Children With Significant Hearing Loss." Journal of Deaf Studies and Deaf Education, 8(1), 11-30.Mahalliy manbalar:
4. Axmedova, M. (2021). "Eshitish qobiliyati zaif bolalarda nutqiy faollikni rivojlantirish texnologiyalari." Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent.
5. Qodirov, S. T. (2020). Maxsus pedagogika: nogiron bolalar bilan ishlash nazariyasi va amaliyoti. TDPU nashriyoti.
6. Rasulova, D. (2019). "Logopedik ishning zamonaviy usullari." Xalq ta’limi jurnali, 4-son, 45-49.